NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR LOYIHALARINING KORRUPSIYAGA QARSHI EKSPERTIZASIDA JAMOATCHILIK ISHTIROKINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Sherov Quvondiq Polvonnazarovich
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi
e-mail: quvondiq1191@gmail.com
tel.: 91 430 20 24

Annotatsiya: *Muallif ushbu maqolada normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash bo'yicha amaldagi qonunchilikni tahlil qilishga harakat qilgan va qonunchilikdagi mavjud bo'shliqlarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan.*

Kalit so'zlar: *normativ-huquqiy hujjat, loyiha, muhokama, ekspertiza, taklif, portal.*

Mamlakatimizda so'ngi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada rivojlantirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish sabab va omillarini aniqlash hamda bartaraf etish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga, unga qarshi kurashishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Huquqni qo'llash amaliyoti normativ-huquqiy hujjatlarda korrupsiyaga sharoit yaratuvchi normalarni aniqlash va bartaraf etish tizimining sifatini va samaradorligini oshirish choralarini ko'rishni taqozo etmoqda.

Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida bir qator qonunchilik hujjatlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi [1], "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi [2], "Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi [3] Qonunlari shular jumlasidan.

Yuqoridagi qonunchilik hujjatlarida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazishda jamoatchilik ishtiroki masalasi belgilangan. Jumladan, "Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi O'RQ-860-son Qonunining 10-moddasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamasida ishtirok etish doirasida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish yuzasidan takliflar

va tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkinligi belgilangan. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasida fuqarolar korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishi mustahkamlangan.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi masalasi Osiyo va Yevropa mamlakatlarining qonunchiligida ham ko‘zda tutilgan. Masalan, Xitoy Xalq Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchiligida normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasini tashkil qilish va aniqlangan holatlarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish XXR Korrupsiyaga qarshi kurashish departamenti tomonidan amalga oshiriladi [4].

Litva Respublikasining “Korrupsiyaning oldini olish to‘g‘risida”gi Qonunida normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi baholash amaliyoti belgilangan.

Finlyandiyada korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy omili sifatida mansabdor shaxslar tomonidan qarorlar qabul qilish jarayonining shaffofligi va oshkoraligi, normativ-huquqiy hujjatlar va qonunosti hujjatlarining ochiqligi va ulardan foydalanish imkoniyatining yaratilganligini ko‘rish mumkin [5].

O‘zbekiston Respublikasida normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘tkazish masalasida qonunchilik bazasi yaratilgan bo‘lsada, ushbu sohada bir qator kamchiliklar mavjudligini ko‘rish mumkin.

Jumladan, O‘zbekiston Respulbikasining “Qonunlar loyihalarini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish va ko‘rib chiqish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi 2025-yil 10-apreldagi O‘RQ-1054-son Qonuni [6] bilan “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-682-sonli Qonuniga o‘zgartirish kiritilib, Qonunning 21-moddasi “Eng muhim iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqishdan oldin uning tayyorlanishi haqidagi axborot normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga joylashtiriladi hamda jamoatchilik muhokamalari ishtirokchilaridan kelib tushgan fikr-mulohazalar va (yoki) takliflar inobatga olingan holda normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqiladi”, degan mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirildi. Ushbu qoida xalqaro standart bo‘lsada [7; 8], bunda ayrim normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilmasdan qabul qilinishini oldini olish muhimdir. Shuningdek, ushbu o‘zgartirish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 9-moddasi normalariga zid hisoblanadi.

“Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonunda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari,

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamasida ishtirok etish doirasida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish yuzasidan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkinligi belgilangan. Biroq, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalining yangi versiyasida “Korrupsiya omillarini aniqlash uchun nazorat ro‘yxati” bo‘limi mavjud bo‘lsada, ushbu bo‘limda jamoatchilik tomonidan fikr bildirish imkoniyati yaratilmagan [9].

Bugungi kunda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasini o‘tkazish bo‘yicha 2 ta bir xil nomdagi portallar faoliyat ko‘rsatmoqda, ya’ni regulation.gov.uz portalining eski versiyasida mahalliy davlat organlarining qarorlari loyihalari, yangi versiyasida vazirlik va idoralar tomonidan ishlab chiqilgan loyihalar muhokamaga qo‘yilmoqda. Fuqarolar aksariyat hollarda jamoatchilik muhokamalari jarayonida portalning yangi versiyasidan foydalanmoqda va bu mahalliy davlat organlarining qarorlari loyihalari nazardan chetda qolishiga olib kelmoqda.

Jumladan, portalning eski versiyasida 2025-yil 24-aprel sanasida Xalq deputatlari G‘ijduvon tuman Kengashining “G‘ijduvon tumani mahalliy budjetining 2025-yil 1-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risida”gi qarori loyihasi joylashtirilgan bo‘lib [10], ushbu loyiha yuzasidan bironta taklif bildirilmagan, binobarin, ushbu loyihada mahalliy budjet mablag‘larini turli sohalarga yo‘naltirish ko‘zda tutilgan. Afsuski, portalda ushbu toifadagi loyihalarni ko‘plab uchratish mumkin va bu jamoatchilikni xabardor qilmasdan budjet mablag‘larining asossiz sarflanishiga olib kelishi mumkin.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasida fuqarolar korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishi mumkinligi belgilangan. Tegishli normativ-huquqiy hujjatlar jamoatchilik muhokamalarini o‘tkazish ushbu me’yor ijrosini ta’minlashning eng samarali shakli deyish mumkin. Shu tufayli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni loyihasini jamoatchilik muhokamasiga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Yana shuni ham ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining rasmiy veb-saytida “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha loyihalar” bo‘limi mavjud bo‘lsada, ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan bironta loyiha veb-saytga joylanmagan [11].

Yuqoridagilardan kelib chqib, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasida jamoatchilik ishtirokini yanada kengaytirish, qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlarini yanada takomillashtirish, aholining huquqiy

savodxonligini rivojlantirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

Birinchidan,

“Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-682-sonli Qonunining 21-moddasi 2-qismidagi **“Eng muhim iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjat loyihasini”** so‘zlarini **“Barcha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini”** so‘zlari bilan almashtirish lozim;

“Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi O‘RQ-60-sonli Qonunining 9-moddasi 2-qismidagi **“Eng muhim iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega qonun loyihasini”** so‘zlarini **“Barcha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini”** so‘zlari bilan almashtirish lozim;

Ikkinchidan,

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portallari (regulation.gov.uz portalining eski va yangi versiyalari)ni birlashtirib, yagona platform yaratish zarur;

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalining **“Korrupsiya omillarini aniqlash uchun nazorat ro‘yxati”** bo‘limida jamoatchilik tomonidan fikr bildirish imkoniyatini yaratish lozim;

Uchinchidan,

Xalq deputatlari mahalliy kengashlari tomonidan ishlab chiqilib, jamoatchilik muhokamasiga kiritilayotgan mahalliy budjetdan mablag‘ ajratishga oid qaror loyihalarini hududiy adliya organlari tomonidan muntazam ravishda huquqiy hamda korrupsiyaga qarshi ekspertizalarini o‘tkazib borish taklif etiladi;

Xalq deputatlari mahalliy kengashlari deputatlari tomonidan har bir ishlab chiqilayotgan loyihalar bo‘yicha fuqarolar ishtirokida muhokamalar o‘tkazib borish amaliyotini yo‘lga qo‘yish zarur;

To‘rtinchidan,

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun talablaridan kelib chiqqan holda korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik loyihalarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish uchun barcha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini jamoatchilik muhokamasiga kiritib borish lozim;

Beshinchidan,

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining rasmiy veb-saytida “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha loyihalar” bo‘limida muntazam ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha loyihalarni joylashtirib borish taklif etiladi.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Hammamiz yagona kuch bo‘lib harakat qilsak, albatta, katta ijobiy samaraga erishamiz. Shu bois mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar, yozuvchi va shoirlar, san’at va madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, taniqli

shaxslar, rahbarlar, deputat va senatorlar – umuman butun jamoatchilik birlashib, korrupsiyaga “jamiyat tanasidagi saraton” sifatida qarashi kerak [12]. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasida jamoatchilik ishtiroki yanada takomillashtirish davlat va jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi qonunlar qabul qilinishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonuni. https://lex.uz/docs/-3088008

2. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-682-son Qonuni. https://lex.uz/docs/-5378966?ONDATE=10.04.2025%2000#edi-7478833

3. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 8-avgustdagi “Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-860-son Qonuni. https://lex.uz/uz/docs/-6561894

4. A.Bekchanov. Xorijiy davlatlarda qonuniylik ekspertizasi amaliyoti: qiyosiy-huquqiy tahlil. Jamiyat va innovatsiyalar – Obщestvo i innovatsii – Society and innovations. https://inlibrary.uz/index.php/socinov/article/view/43663

5. Zaxarova V.I. Pravovoe regulirovanie antikorruptsionnoy ekspertizы v zarubejnыx stranax. https://cyberleninka.ru/article/n/pravovoe-regulirovanie-antikorruptsionnoy-ekspertizy-v-zarubezhnyh-stranah

6. O‘zbekiston Respulbikasining “Qonunlar loyihalarini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish va ko‘rib chiqish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi 2025-yil 10-apreldagi O‘RQ-1054-son Qonuni. https://lex.uz/uz/docs/-7470108.

7. Yo‘ldoshev A.E. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish istiqbollari: monografiya. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2022. – 161 bet.

8. Yo‘ldoshev A.E. O‘zbekistonda qonun hujjatlari loyihalarini fuqarolik jamiyati institutlari bilan kelishish holati va istiqbollari // Yuridik fanlar axborotnomasi, maxsus son, 2020. – B. 40-46.

9. https://regulation.adliya.uz/

10. https://regulation.gov.uz/oz

11. O‘zbekiston Respulbikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining rasmiy veb-sayti. https://anticorruption.uz/uz/korrupsiyaga-qarshi-kurashish-boyicha-loyihalar

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2025-yil 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishidagi nutqi. https://president.uz/oz/lists/view/7924